

OMON MATJON SHE'RIYATIDA KO'Z MOTIVI VA KO'ZGA OID BADIY QARASHLAR

Alxiyeva Sitora Rahimqul qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti
sitora1994@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Omon Matjonning "Ko'zlarining yashirgil mendan", "Sen ketursan izingdan", "Ko'p kezma daraxtzor bog'lar ichinda" kabi lirik she'rlarining badiiy xususiyati to'g'risida so'z yuritiladi. Ushbu misralarga monand mumtoz misralar: g'azal, ruboiy, she'rlar keltiriladi. Jumladan, Alisher Navoiy, Mirzo Bedil, Maxtumquli hamda nemis mumtoz shoiri Haynrix Hayne ijodiga murojaat qilinadi. Keltirilgan she'rlarda lirik qahramon va she'riy san'atlar tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar. She'r, ruboiy, A.Navoiy, Maxtumquli, Bedil, Haynrix Hayne, lirik qahramon, she'riy san'atlar: tashbeh, tazod, takrir.

AMON MATJON'UN ŞİİRİNDE GÖZ MOTİFİ VE GÖZLE İLGİLİ EŞLEŞME SANATSAL GÖRÜŞLER

Alkhiyeva Sitora Rahimkul kizi,
Özbek-Finlandiya Pedagoji Enstitüsü'nde yüksek lisans öğrencisi

Kirish. Ma'lumki, Omon Matjon she'riyati rangbarang, o'z sozi, o'z kuyiga ega bo'lib, har misrasi yoqimli navo berib jaranglaydi, boisi mumtoz adabiyotimizdag'i an'anaviylik(XV-XVIII asrlar she'riyati) XX-XXI asr shoirining she'rlarida saqlanib qolgan. Ularda asosan, qalb, qalb ko'zi, badiiy olam, muhabbat, vafo, ona tuproq kabi tasvir va tuyg'ular tarannum etiladi. Ushbu misralarning bir-ikkitasiga to'xtalar ekanmiz, tadqiq jarayonida bir olam taassurot va hayratga ega bo'lishimiz shubhasiz, chunki shoir lirikasi she'riyat ummonidagi eng sara durdonalardan.

Anahtar kelimeler. Şiir, rubai, A. Nevai, Makhtumkuli, Bedil, Heinrich Heine, lirik kahraman, şiir sanatlari: alegori, tazod, takrir.

OMON MATJON SHE'RIYATIDA KO'Z MOTIVI VA KO'ZGA OID МОТИВ ГЛАЗА И ГЛАЗНАЯ СОЧЕТАНИЕ В ПОЭЗИИ АМОН МАТЖОНА ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ВИДЫ

Алхиеева Ситора Рахимкул кызы,
магистрантка Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В статье говорится о художественной природе таких лирических стихотворений Омона Матжона, как "Кўзларингни яширгил мендан", "Сен кетурсан изингдан", "Кўп кезма дарахтзор боғлар ичинда". Эти стихи сопровождаются классическими стихами. В частности, упоминаются произведения Алишера Навои, Мирзо Бедиля, Махтумкули и немецкого поэта-классика Генриха Гейне. В цитируемых стихотворениях исследуются лирический герой и поэтическое искусство.

Ключевые слова. Поэма, рубай, А.Навои, Махтумкули, Бедил, Генрих Гейне, лирический герой, поэтическое искусство: ташбех, тазад, такрир.

THE EYE MOTIVE AND ARTISTIC VIEWS ON THE EYE IN THE POETRY OF AMON MATJON

Alkhiyeva Sitora Rahimkul qizi,
master's student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Abstract. The article talks about the artistic nature of Omon Matjon's lyrical poems such as "Ko'zlarining yashirgil mendan", "Sen ketursan izingdan", "Ko'p kezma daraxtzor bog'lar ichinda". Classic verses similar to these verses: ghazals, rubai, poems. In particular, the work of Alisher Navoi, Mirzo Bedil, Makhtumkuli and the german classical poet Heinrich Heine is referred to. The cited poems explore the lyrical character and poetic arts.

Keywords. Poem, rubai, A.Navoi, Makhtumkuli, Bedil, Heinrich Heine, lyrical hero, poetic arts: tashbeh, tazad, takrir.

O.Matjonning quyidagi she'rida mashuqasining ko'zlarini ko'rib, qalbidagi dard yana uyg'onishidan, ishq olovining alangasi tufayli ozorlanishdan qochishga intilayotgan oshiq gavdalanadi:

*Ko'zlarining yashirgil mendan,
O'tib ketay yoningdan befarq.
O'tib ketay yoningdan bedard
Ko'zlarining yashirgil mendan [1, 10-bet].*

Bedard bo'lish – ishq gulxanida qovurilmaslik bo'lsa, befarq bo'lish uning ko'zi orqali qalbi malohatini his etmaslikdir. She'rning ikkinchi bandida oshiq o'zi kechibgina qolmay, agar qalbida nomi bo'lsa, yilib tashlashni, bir so'z bilan aytganda – dardlanmaslikni so'raydi.

*Nomim bo'lsa qalbingda agar
Otib tashla mayli tuproqqa.
Har kuni o't shu yo 'lni toptab,
Nomim bo'lsa qalbingda agar [1, 10-bet].*

She'rning har ikki bandida ham birinchi va to'rtinchi qatorlar takrorlanib takrir san'atini yuzaga keltirgan va lirik qahramon murojaatini o'ta ta'sirli aks ettirishga xizmat qilgan. Ko'z orqali shuncha dard-hasrat ichga kirishini Alisher Navoiyning quyidagi ruboysiidan ham anglab olamiz:

*Ul ko'zki, dame bo'lmadi sog', ey qaro ko'z,
Qonimdin ichar mudom ayog', ayog' ey qaroko'z.
Bilmonki, erur anga qarog', ey qaroko'z,
Yo mast edi, qo'ydi toza dog', ey qaro ko'z[2.458-bet].*

Ruboiy qofiyasi a-a-a-a shaklida bo'lib, sog', ayog', qarog', dog' so'zlaridan iborat. Raviysi g' harfi – muqayyad qofiya. Radifi "Ey qaro ko'z" jumlesi bo'lib – yoyiq radif hisoblanadi. Ma'nosi: ko'zning birdam sog' bo'limganligi, mudom qonidan bir qadah ichishi va bilmaydiki, uning qorachig'i mastlikdanmi, oppoqlikka qoradog' tushirganlikdanmi paydo bo'lganligini. Birgina ko'zning o'ziga shuncha ta'rif berilib, uning qon ichishi va qon yutishi hazrat Navoiy tomonidan benazir tashbehangan. Shu o'rinda Maxtumqulining "Jallod ko'zlarining" she'rini yodga olamiz:

*Sabab bo'ldi yongan jonga,
Jalloddir qora ko'zlarining.
Yetkazmas najot – darmonga,
Jalloddir qora ko'zlarining [3.46-b].*

Dilni dardmand etguvchi, qon yutguvchi va ichguvchi jallod ko'zlar nemis shoiri Haynrix Haynening quyidagi she'rida "sho'x" deya ta'riflanadi:

*Tushlarda yondirdi meni qilib tang,
Ehtiros, zarkokil, gullar, sho'x ko'zlar,
Bol labdan otilgan ul achchiq so'zlar,
Alamli qo'shiqlar, qayg'uli ohang[4].*

She'r qofiyasi a-b-b-a shaklida bo'lib, ko'zlar, lab, qo'shiq, ohang kabi so'zlar tanosub san'atini, gullar, sho'x ko'zlar istiora gullar, ko'zlarining lirik qahramonning yondirishi tashxis san'atini vujudga keltirgan. Shu narsa ma'lum bo'ladiki, she'riyatda ko'z oldin xursand qilguvchi, ehtiros berguvchi, muhabbat solguvchi, so'ngra yoshlatguvchi, jon olguvchi, ozor berguvchi motiv

bo‘lib kuylanadi. Omon Matjon lirikasida o‘ziga xosliklardan yana biri shundaki, ko‘p qatorlar oxiridagi misralar zidlantiriladi va xuddi mungli kuy kabi o‘qiladi: “sen unda dog‘ bo‘lding, men bunda dog‘ qoldim”, “ketmoqdasan jim-jim, qolmoqdaman jim-jim” kabi. Quyida “Sen ketursanizingdan...” she’ridan to‘rt qator keltirsak:

*O‘tdi sevgi, o‘tdi dard –
Ko‘chayotgan qushlardek.
Ketmoqdasan jim-jim,
Qolmoqdaman jim-jim [5.21].*

Sevgi va dardning o‘tishi ko‘chayotgan qushlarga o‘xshatilgan va tashbeh san’atini yuzaga keltirgan. Shu misraning o‘zidayoq lirik qahramon kuzatuvi va holati orqali chiroyli badiiy falsafani ilg‘ash mumkin.

Shoirning o‘n bir bo‘g‘inli “Ko‘p kezma daraxtzor bog‘lar ichinda” she’ri mumtoz g‘azallar bilan zamonaviy barmoq vaznidagi she’riyatni o‘zida uyg‘unlashtirgan va ko‘rkam ma’no hamda murojaatni vujudga keltirgan:

*Ko‘p kezma daraxtzor bog‘lar ichinda,
Daraxtlar dil do‘sting bo‘lolmas sening.
Chorlasang kelolmas, yonib qucholmas,
Sen faqat mening bo‘l, meniki, mening[6.27].*

Lirik qahramon yoriga daraxtzor bog‘larda ko‘p kezmaslikni, chunon go‘zal ko‘rinmasin, unga dil do‘sti bo‘lolmasligini ta‘kiddaydi va faqat o‘ziniki bo‘lishini takror va takror so‘raydi. Mening, meniki, mening tarzida uch bora takrorlangan so‘zlar she’r badiiy ta’sirini kuchaytirgan.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan ko‘zga oid qarashlar va Omon Matjon she’riyati, shuningdek, boshqa shoirlarning ijodiga oid ta‘rifu tavsiflar ummondan tomchi. Uning dur-u javohirlari adabiyotimiz xazinasidan o‘rin olib, insoniyat qalbi va ruhiyatini tuganmas ma’naviy oziq bilan to‘ydirib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Omon Matjon. “Seni yaxshi ko‘raman”. She’rlar. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1981. B. 335, 10-bet.
2. Alisher Navoiy. “Badoye ul-bidoya”, 489 bet. 458-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Buriyeva, F. (2025, March). Yunus Emro she’riyati: adabiy an’ana va individual uslub. In International Conference on Adaptive Learning Technologies (Vol. 15, pp. 37-39).
4. Maxtumquli. Ustozingdan ayrılma. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2012. B.176, 46-bet.
5. Haynrix Hayne. Ro‘yolar turkumidan. Ziyouz.com
6. Matjon O. Maqsudam (she’rlar)-T.: “Adabiyot” nashriyoti, 2021-128b.
21-b., 27-b.